

## ASPIRINNING SIZ BILGAN VA BILMAGAN FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Negmatova Moxichehra Umarovna

TTA Termiz filiali Farmakologiya va klinik farmakologiya kafedrasida assistenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15208751>

*Annotatsiya.* Aspirinning tibbiyotning turli sohalarida tutgan o'rni.

*Kalit so'zlar:* atsetilsalitsil kislota, yurak xuruji, demensiya, tuxumdon raki.

## PHARMACOLOGICAL PROPERTIES OF ASPIRIN YOU KNOW AND DON'T KNOW

*Abstract.* The role of aspirin in various fields of medicine.

*Keywords:* acetylsalicylic acid, heart attack, dementia, ovarian cancer.

## ЧТО ВЫ ЗНАЕТЕ И НЕ ЗНАЕТЕ ОБ АСПИРИНЕ ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА

*Аннотация.* Роль аспирина в различных областях медицины.

*Ключевые слова:* ацетилсалициловая кислота, сердечный приступ, деменция, рак яичников.

Aspirin-atsetilsalitsil kislota tibbiyotda eng keng foydalaniladigan dori vositalaridan biri hisoblanadi. Birinchi marta 1899-yilda revmatik isitma va podagra kasalligini davolash uchun Germaniyaning Bayer farmasevtik industriyasida katta miqdorda ishlab chiqarilgan. Qiziq tomoni shundaki, aspirin 1950-yilda eng ko'p sotilgan dori sifatida dunyoning Ginnes rekordlar kitobiga kiritilgan. [2].

U isitma, og'riq kabi 50 dan ortiq simptomlarni davolash uchun ishlatiladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, yurak kasalligiga moyilligi bo'lgan insonlarning aspirinni ertalabga nisbatan tunda qabul qilishi ularda o'tkir yurak xurujlari sodir bo'lishini kamaytirar ekan. Buning sababi shundaki, inson organizmidagi qon ivishiga javobgar bo'lgan trombositlarning faoliyati ertalab eng cho'qqiga chiqadi shu sababli aspirinni kunlik kam dozada kechqurun qabul qilish trombositlarning ertalabki faoliyatini pasaytirib turadi.

Nyu-York shahar kolleji tarkibidagi Sofi Devis nomli biotibbiyot maktabi olimlari ma'lumotlariga ko'ra tarkibida aspirin saqlovchi o'smaga qarshi yangi dori vositasi inson organizmidagi 11 xil o'sma hujayralarining o'sishini boshqa sog'lom hujayralarga zarar yetkazmagan holda to'xtatishini aniqladi. Kunlik aspirin qabul qiladigan ayollarda ularning tuxumdon rakiga chalinish ehtimoli 20%ga kamayar ekan. Nafaqat tuxumdon raki, balki aspirinning ko'krak va oshqozon rakida davolash maqsadida samarali ekanligi aniqlandi.

Avstarliyaning Tasmaniya shahrida 70 yoshdan oshgan 15000 dan ortiq inson ishtitok etgan tadqiqot o'tkazildi. Ushbu tadqiqotda ishtirok etgan insonlar kunlik kichik dozada aspirin qabul qilishdi. Oqibatda ularning yurak va bosh miya masalan, demensiya, Algesgeymer kasalligiga uchrash ehtimoli 23% foizga pasaydi. Hech qachon aspirinni och qoringa iste'mol qilmang. Agar aspirin och qoringa iste'mol qilinadigan bo'lsa, u oshqozonda yara va qon ketishiga sabab bo'ladi. Simptomlarga bog'liq holda, aspirinning kundalik dozasi 50 mg dan 6000 mggacha. Masalan sizda o'rtacha og'riq bo'ladigan bo'lsa, siz 650 mgdan har 4 soatda yoki 500 mgdan har 6 soatda qabul qiling.

Agar yosh bolalar gripp yoki shu kabi virusli kasallik bilan kasallanganda ota-onalar ularga aspirinning har qanday shaklini bermasliklari kerak. Chunki u bolalarda jigar va bosh miya shikastlanishi bilan kechuvchi jiddiy kasallik hisoblangan Reye sindromiga sabab bo'ladi.

Nojo'ya ta'sirlariga kelsak, yuqorida aytilganidek oshqozonda yarlar, qon ketishi, quloqda shovqin, bosh aylanishi, buyrak yetishmovchiligi, astma. Bundash tashqari 2-tip qandli diabetli bemorlar ushbu preparatni qondagi qand miqdorini nazorat qilmay qabul qilsa, qand miqdori keskin ravishda tushib ketadi. [1], [2].

Katta dozalarda asetil salisil kislota tarkibidagi salisilatlar hisobiga, gipotalamusga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatib AKTG va shu tufayli va shu tufayli glukokortikoidlar ajralishini kuchaytiradi. Ammo salisilatlarini yallig'lanishga ta'siri u bilan belgilanmaydi. [4].

Uning bu hususiyatidan buyrak usti bezlari faoliyati susayganda, uni stimullashda ahamiyatga ega.

Keksa insonlar organizmida yosh o'tgan sari qon aylanish sistemasida o'zgarishlari tufayli ularda yurak va miya kasallilari paydo bo'lish ehtimolligi ortadi. Shu sababli ushbu insonlar profilaktika uchun aspirin iste'mol qilishlari kerak. Hozirgi kunda aspirin kapsula, tabletka, shamcha va inyeksiya shaklida ishlab chiqariladi.

Xulosa qilib aytganda aspirin quyidagi hususiyatlarga ega:

- 1.SOG-1, 2 fermentini ingibirlash orqali yallig'lanish jarayonini susaytiradi.
- 2.Antiagregant ta'siri hisobiga qonni suyultirishi.
- 3.O'sma hujayralarining o'sishini susaytirishi.
- 4.Qondagi qand miqdorini kamaytirishi.

5.AKTG ajralishini rag'batlantirib, bu orqali buyrak usti bezlaridan glukokortikoidlarni ishlab chiqarishini oshiradi.

Aspirinning shu kabi hususiyatlariga asoslanib yallig‘lanishda, yurak-ishemik kasalliklarini oldini olish va asoratlarini davolashda qon suyultiruvchi vosita sifatida, antiblastom vositalar bilan kompleks tarzda, gipoglikemik vositalar sifatida va buyrak usti bezlari faoliyati susayganda qo‘llash imkonini beradi.

#### **REFERENCES**

1. Susan E.Feinman. Beneficial and Toxic effects os Aspirin.
2. <https://www.aspirin.com>
3. Positive Med( <http://positivemed.com>)
4. D.A.Xarkevich.Farmakologiya.Darslik.M.-2021.y.